



FRANSUZ TILIDA “A” PREDLOGINING GRAMMATIK VA SEMANTIK JIHATLARI

Sobirov Diyorbek Muxtorbek o‘g‘li

Andijon davlat chet tillari instituti

Roman-German va slavyan tillari fakulteti, Filologiya va tillarni o‘qitish

(fransuz tili) ta‘lim yo‘nalishi 1-bosqich iqtidorli talabasi

I.O.Anarboyeva

Ilmiy rahbar

Ma‘lumki, jahon tillari orasida fransuz tili eng go‘zal va jozibador tillardan biri hisoblanadi. Fransuz tili-hind yevropa tillar oilasining roman guruhiga mansub. Bu tildan ko‘plab mamlakatlar foydalanadi. Darhaqiqat, fransuz tili o‘zining lug‘aviy boyligi, musiqaviyligi va mayinligi, shuning bilan birga, grammatik jixatdan murakkabligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Shuning uchun xam ingliz tili – ishbilarmonlar tili, nemis tili – buyruq va ko‘rsatmalar tili, fransuz tili esa – muxabbat tili deb bejiz aytilmagan bo‘lsa kerak.

Bilamizki, fransuz tili grammatikasida predloglarning o‘rni va ahamiyati katta bo‘lib, ular gap tuzilishi, so‘zlarning leksik ma‘nosiga ta‘sir etadi.

Jumladan, “à” predlogini olaylik: “à” predlogi ma‘no jihatidan o‘zbek tilidagi qaratqich va jo‘nalish kelishidagi qo‘shimchalar “-ning, -ga” qo‘shimchalariga to‘g‘ri keladi.

1. “à” predlogi o‘z ma‘nosiga ko‘ra yo‘nalishni ifodalab keladi.

Ex: Marthe va à la gare. (Mart vokzalga boryapti.)

Je passerai mes vacances à la champagne. (Men ta‘tilni qishloqda o‘tkazmoqchiman.)

2. “à” predlogi “article contracte”, “tutash artikl”ni hosil qilganda kerak bo‘ladi.

A+le=au Chaque jour, nous allons au parc. (Har kuni, biz bog‘ga boramiz.)

A+la=à la Pascal va à la usine. (Paskal zavodga boryapti.)

A+l’=à l’ Hier, mon père est allé à l’hospital. (Kecha, dadam kasalxonaga bordi.)

A+les=aux Notre professeur pose des questions aux élèves. (Bizning o‘qtuvchimiz o‘quvchilarga savollar beradi.)

3. Ayrim fe‘llar “à” predlogini talab qiladi. Ushbu fe‘llar o‘zidan keyingi kelgan ot bilan moslashadi.

Passer à - vaqtni o‘tkazmoq. Chercher à- izlamoq

Ex: On pourrait se contenter de sourire et passer à autre chose.

(Biz shunchaki tabassum qilamiz va vaqt o‘tkazamiz.)

Les jeunes cherchent à se démarquer par la gestuelle.

(Yoshlar imo-ishora bilan ajralib turishga intiladi.)

4. Barcha shaharlar oldidan à predlogi ishlatiladi.

Ex: à Paris. Aujourd’hui, mon père part à Paris. (Bugun, dadam Parijga jo‘nadi.)

à Khiva. Les touristiques visiterons à Khiva (Turistlar Xivaga tashrif buyurmoqchi.)

5. “à” predlogini ya‘na “y” ravishli olmosh haqida ishlatiladi.



Ex: Je vais au lycée. J'y vais. Je reste à la maison. J'y reste.

Tout le monde y trouve. (Hamma u yerni izlamoqda.)

6. "à" predlogi paytni ham ifodalaydi. Ex: Il se leve à 7 heures. (U soat 7da uyg'ondi.)

Chaque jour, il se leve à 7 heure. (Har kuni, u soat 7da turadi.)

7. Harakatning holatini ham anglatadi. Ex: Je vais à l'institut à pied. (Men institutga piyoda boraman.) Mon père va au marche à pied. (Dadam bozorga piyoda bordi.)

Chaque fois, Marc va au lac avec son ami à moto. (Har safar, Mark mototsiklda do'sti bilan ko'lga bordi.)

8. Tegishlilik va nima maqsadga qaratilganligini bildiradi.

Ex: Adele parle à ses élèves. (Adele o'quvchilariga gapirdi.) Ce stylo est à moi. (Bu ruchka meniki.)

9. Narsalarning qanday mahsulotdan tayyorlanganini bildiradi.

Ex: Hier, j'ai mangé un gâteau au fruit. (Kecha, men mevali tort yedim.)

Le soir, je boive un tasse à café. (Kechqurun, men bir chashka qahva ichdim.)

10. "à" predlogi ishtirok etgan ko'plab iboralar mavjud.

Ex: à l'aide! - yordam bering! à table! - Dasturxonga!

11. Undan tashqari "à" predlogi quyidagi gap bo'laklari vazifasida keladi.

To'ldiruvchi: Je donne les livres aux élèves. (Men o'quvchilarga kitoblar berdim.)

Hol: Hier, mon oncle est allé à Paris. (Kecha, amakim Parijga bordi.)

Predloglar 2 xil bo'ladi:

1. Sodda predloglar (à, avec, chez, dans)

2. Murakkab predloglar (à cause de, à cote de, à santé de) "à" predlogi sodda predlog hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, har bir til o'rganuvchi mavzularni turkumlarga ajratib grammatik va semantik jihatlarini puhta o'rgansa keyingi faoliyatlarida asqotishi shak-shubhasizdir. Shuning uchun ham bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganayotgan talabalar, til fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisini, leksikologiyasi va semantika kabi sohalarini puxta bilishi talab etilayotganligi bejiz emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O. Matyoqubov. Le Francais. Urgench, 2021
2. Gilles Breton, Sylvie Gepage, Marie Rousse. Reussir le DELF. Paris, 2013
4. Clemence Fata, Florence Gajdosova, Airelle Pasquet, Marion Perrard, Violette Petitmengin, Caroline Sperandio. Edito A2. Paris, 2022
5. I.N. Popova, J.A. Kazakova, G.M.Kovalchuk. Manuel de Français. Toshkent, 2017
6. I.O.Anarboyeva. Turli tizimli tillarda so'z semantikasining o'ziga xos jihatlari. Andijon, 2023